

QUYI AMUDARYO IBTIDOIY JAMOA TUZUMI TARIXSHUNOSLIGI (MUSTAQILLIK YILLARIDA)

Sultanov Samandar

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18058921>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Quyi Amudaryo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid tarixshunoslik masalalari yoritilgan. Tadqiqotda arxeologik ekspeditsiyalar faoliyati, ularning yangi ilmiy markazlar bilan hamkorligi, shuningdek, mahalliy va xorijiy arxeologlarning olib borgan qazishma ishlari asosida olingan ilmiy natijalar tahlil qilinadi. Xususan, Tuyamuyin, Sultan Sanjar, Qushbuloq va Qarrikizil manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar, ularning neolit, eneolit va bronza davrlariga oid topilmalari tahlil etiladi. Shuningdek, Kalta Minor madaniyatining genezisi, Quyi Amudaryo aholisining etnik shakllanish jarayoni, tabiat-geografik sharoitlarning antropogen omillar bilan bog'liqligi haqida olimlar qarashlari solishtirib tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida Quyi Amudaryo havzasining qadimiy madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha yangi ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Quyi Amudaryo, ibtidoiy jamoa tuzumi, arxeologiya, tarixshunoslik, mustaqillik yillari, Xorazm ekspeditsiyasi, Kaltaminor madaniyati, neolit, eneolit, bronza davri, geomorfologiya, etnik jarayonlar, arxeologik manbalar, ilmiy tadqiqotlar.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы историографии первобытнообщинного строя в Нижнеамударьинском регионе в годы независимости. Исследование посвящено анализу деятельности археологических экспедиций, их взаимодействию с новыми научными центрами, а также результатам совместных исследований с зарубежными археологами. Особое внимание уделено археологическим раскопкам на памятниках Туямуйн, Султан-Санджар, Кушбулок и Каррикизил, относящихся к неолиту, энеолиту и бронзовому веку. Проанализированы мнения исследователей о генезисе Калтаминорской культуры, этническом формировании населения Нижнего Амударьи, а также о влиянии природно-географических и антропогенных факторов на развитие общества. В результате исследования предложены новые научные выводы о культурном и социально-экономическом развитии региона в древности.

Ключевые слова: Нижний Амударья, первобытнообщинный строй, археология, историография, годы независимости, Хорезмская экспедиция, Калтаминорская культура, неолит, энеолит, бронзовый век, геоморфология, этнические процессы, археологические источники, научные исследования.

Abstract. This article explores the historiography of the primitive communal system in the Lower Amu Darya region during the years of Uzbekistan's independence. The study analyzes the activities of archaeological expeditions, their collaboration with newly established local research centers, and joint projects with foreign scholars. Particular attention is given to excavations at Tuyamuyin, Sultan Sanjar, Qushbuloq, and Qarrikizil sites, which date back to the Neolithic, Eneolithic, and Bronze Ages. The paper examines the genesis of the Kalta Minor culture, the ethnic formation processes in the Lower Amu Darya basin, and the influence of natural-geographical and anthropogenic factors on early human societies. The research

presents new conclusions regarding the ancient cultural and socio-economic development of the region.

Key words: Lower Amu Darya, primitive communal system, archaeology, historiography, years of independence, Khorezm expedition, Kalta Minor culture, Neolithic, Eneolithic, Bronze Age, geomorphology, ethnic processes, archaeological sources, scientific research.

Mustaqillik yillari davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, o'tgan asrda ikki xududda xarakat qilgan arxeologik ekspeditsiyalar faoliyatlari to'xtagan, yangi nomda maxalliy ilmiy markazlarning arxeologik guruxlari, xamda xorijiy davlatlar xamkorligida tashkil qilingan arxeologiya ekspeditsiyalari olib borib yangi manbalarni olib, ularni ilmiy taxlil qilingan ma'lumotlarni qamrab olgan turli nomda nashrlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

Xorazm ekspeditsiyasi XX asr 90 yil boshida chop qilingan nashrida Tuyamuyin xududi (Janubiy Xorazm vohasi) axoli markazlari bo'lgan Qushbuloq, Sulton Sanjar, Qarriqizil manzilgohlarida amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolarni ilmiy taxlili monografiyada o'z aksini topgan¹.

Monografiyani birinchi bo'limida Amudaryo sohili bo'ylab qadimgi karvon yulida arxeologik yodgorliklar joylashgan, e'tibor berib, ularni xaritasiga joylashtirgan. Janubiy Xorazm xududida neolit va bronza asri degan ikkinchi bo'limi birinchi bandida geologo-geomorfologik paleogeografik masalalari yoritilgan.

Bo'limning ikkinchi bandida Tuyamo'yin xududi Sulton Sanjar va Qo'shbuloq xavzalari joylashishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shunga ko'ra, Sulton Sanjar xavzasi Tuyamuyindan janubi-g'arbida 6 km uzoqlikda joylashgan, uning tuzilishi tug'riburchak uzunligi 17 km, kengligi 9 km. Arxeologik izlanishlar natijasida Sulton Sanjar 1,5, 2,3,4 ro'yxatga olingan, qazishma natijalariga ko'ra, tosh qurollar, Sopol ashyolari olingan. Qo'shbuloq xavzasi-Sulton Sanjar xavzasidan 11-12 km janubi-sharqida joylashgan, bu xududda Qarriqizil-1 Qushbuloq-1 va Qarriqizil-4 manzilgohi neolit, eneolit va bronza davriga oid bo'lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolar mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid bo'lgan.²

Tadqiqotchi X.X.Matyaqubov qayd qilishicha, Quyi Amudaryo xavzasi o'ng va so'l sohili xududlarida Amudaryo suv oqimi barqaror bo'lganligi bois, neolit, eneolit va bronza davrida kundalik faoliyatlarni olib borgan ajdodlarimizning jamiyatni rivojlantirish soxasida tarixiy yuli tarixiga oid umumlashgan xulosalarini qayd qilganlar³. Xamdam Matyaqubov monografiyasida esa, Quyi Amudaryo xavzasi geomorfologik xususiyati, Kaltaminorliklar turmush tarzi, xujalik sohalarning bronza davrida ahamiyati saqlanib qolishi, bronza davri axoli turar-joylari ularning joylashishi, miqdoriy jixatidan o'zgarishlari, xo'jalik asosi yarim yerto'la turar-joylari, shimoliy xududlardan ko'chib kelgan Yog'ochband va Andronova qabilalarning Janubiy Oqchadaryoga kelib joylashishi, Amirobod madaniyatlari, axolining, diniy e'tiqodlari o'z aksini topgan⁴. Tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarda Kaltaminor

¹ Древности Южного Хорезма. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции-М.:»Наука», 1991. Т. XVI- С 11-12.

² Древности Южного Хорезма-М:Наука, 1991. Тош. XVI-С 51-77/

³ Матякубов Х.Х. Амударё куйи хавзасининг қадимги табиий-географик ҳолати ва антропоген ландшафтининг шаклланиши //Ўзбекистон моддий маданияти тарихи-Самарқанд, 2011- № 1-Б 75-85. Ўша муаллиф. Ўзбек давлатчилигининг ilk bosqichlarida Қадимги Хоразм тарих фан.номзоди дисс.-асарлар.-Тошкент, Ўзбекистон Миллий Университети 2011-С 23-24.

⁴ Матякубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва ilk темир даври тарихи-Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти-Тошкент, 2014- 204 б.

madaniyatining genezisi masalalari taxlil qilingan, bunga ko'ra, Kaltaminor madaniyati uch bosqichga bo'lingani, Quyi Amudaryo va Zarafshondaryosi quyi xavzasi Qizilqum ichki qismi, O'rta Zarafshon, Ustyurt, Uzboy va Sariqamishbuyi, Sirdaryo quyi xavzasi kabi xududlarda Kaltaminor madaniyati tarixiga oid umumlashgan xulosalari izohlangan⁵. Tadqiqotchilar Kaltaminorliklarning kelib chiqishi dolzarb muammo sifatida qayd qilib, uning genezisi masalasida o'rta Zarafshonda so'nggi tosh davriga mansub Samarqand makoni ovchilari-termachilarning ko'chib kelishi degan xulosalarga kelgan. Albatta, migratsion jarayonlar dolzarb masalalardan biri, xar bir tabiiy-iqtisodiy xududning o'ziga xos geomorfologik xususiyatlari bilan farqlanish xolatlari mavjud. Tadqiqotchilarning yuqorida qayd qilgan Kaltaminorlik tarixiga oid mulohazalariga qo'shilib bo'lmaydi. Xorazm vohasi shimolida ibtidoiy ovchilar tomonidan kundalik hayotlarini so'nggi tosh davridan boshlab etnik makonlar maydoniga aylangan. Bunda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilar Ye.A.Vinogradovanning Sulton Uvays tog'i etaklarida so'nggi tosh davriga oid Burli-3 manzilgoxida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini inobatga olish lozim.

Tadqiqotchi Q.Sobirov maqolasida Janubiy Orolbo'yi xududining geografik xolati, antropogen landshafti ta'sirida shakllangan tabiiy-iqtisodiy xududlarning geomorfologik xususiyatlari, geografik o'rnining ijobiy va noijobiy tomonlari masalasiga doir fikr-mulohazalarini qayd qilgan⁶.

Tadqiqotchi O'I.Abdullaev monografiyasida S.P.Tolstovning "Kaltaminor madaniyati" ga e'tiborni berib, Neolit davri tabiiy sharoiti, geografik muhiti va ekologiyasi hozirgi zamon tabiiy-geografik muhitiga mos emasligi, bundan IV-III ming yilliklarda Shuraxon va Sulton Uvays tog'i oralig'ida Qizilqum sochma qum uyumlari oralig'ida botiqlar suv xavzalariga aylangan, ular sohili etaklari "Qamish va mayda xajmlari, Yaproqla boy o'simlik olamiga serob bo'lgan bir xudud bo'lganligi, urug' jamoalari esa ovchilik va termachilik kundalik faoliyatlarida o'rin olgan. Mazkur zamin yuzasi sof tuproq bo'lganligi bois, mayda – maysalarga ega bo'lgan, bu esa uy chorvachiligi uchun tabiiy ozuqa mahsulotlari bo'lganligi masalasiga urg'u bergan⁷.

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Amudaryo o'ng sohili Shuraxon-Orol dengizi Janubiy xududlari geografik kenglik geomorfologik jixatidan farqlanishi, neolit davri urug' jamoalarining Oqchadaryo irmog'i suv ta'minotidan foydalanib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar ob'ekti bo'lgan⁸. Tadqiqotchi Q.Sobirov maqolasida neolit davriga mansub Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari joylashgan zamin, ularning xo'jalik yo'nalishlarini olib borganligi, zaminning ijobiy va noijobiy xislatlari, jamiyatni tadrijiy ravishda rivojlantirgan⁹.

⁵ Сайфуллаев Б.Қ, Хошимов Х.Б, Эргашев О.Т, Бердиқулов М.Т. Калтаминор маданиятининг генезиси масаласига доир //Қарақалпақстонда археология илиминин Жетискенликтери" атамасындаги Республикалык илимий-эмелий конференцияси материаллары топламы-нукус. 2019-С. 111-113.

⁶ Собиров Қ. Жанубий Оролбўйи пасттекислигида антропоген ландшафт ва табийий – иқтисодий худудлар (ўша тўпламда-Б 134-136.

⁷ Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиё ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи-Ташкент, 2011-Б 129.

⁸ Холматов Н.У, Холматова З.Н. Оқчадарё хавзаси неолит даври хусусида //Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларида-Урганч 2019-Б. 180-181..

⁹ Собиров Қ. Маданий мерос, зироаткор аҳоли ҳаёт ва ижод уйғунлиги кўзгуси //Маданий мерос объектларини асраш, қайта тиклаш, муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг долзарб масалалари (Конференция материаллари тўплами)-Урганч 2019-Б 132-134.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиё ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи-Ташкент, 2011-Б 129.
2. Абдуллаев Ў.И. Илк ўзбек давлатчилигининг ривожланиш босқичида Хоразм воҳаси тарихи-Урганч 2019-Б 45-46.
3. Древности Южного Хорезма. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции-М.:»Наука», 1991. Т. XVI- С 11-12.
4. Матяқубов Х.Х. Амударё қўйи хавзасининг қадимги табиий-географик ҳолати ва антропоген ландшафтининг шаклланиши //Ўзбекистон моддий маданияти тарихи-Самарқанд, 2011- № 1-Б 75-85. Ўша муаллиф. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида Қадимги Хоразм тарих фан.номзоди дисс.-асарлар.-Тошкент, Ўзбекистон Миллий Университети 2011-С 23-24.
5. Матяқубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи-Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти-Тошкент, 2014- 204 б.
6. Сайфуллаев Б.Қ, Хошимов Х.Б, Эргашев О.Т, Бердиқулов М.Т. Калтаминор маданиятининг генезиси масаласига доир //Қарақалпақстонда археология илиминин Жетискенликлери” атамасындаги Республикалык илимий-эмелий конференцияси материаллари топлами-нукус. 2019-С. 111-113.
7. Собиров Қ. Жанубий Оролбўйи пасттекислигида антропоген ландшафт ва табиий – иқтисодий ҳудудлар (ўша тўпланда-Б 134-136.
8. Собиров Қ. Маданий мерос, зироаткор аҳоли ҳаёт ва ижод уйғунлиги кўзгуси //Маданий мерос объектларини асраш, қайта тиклаш, муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг долзарб масалалари (Конференция материаллари тўплами)-Урганч 2019-Б 132-134.
9. Холматов Н.У, Холматова З.Н. Оқчадарё хавзаси неолит даври хусусида //Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларида-Урганч 2019-Б. 180-181.